



BUGUNGI KUNDA DAVLAT TILINING MAMLUKATIMIZDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Abdurayimova Mashhura Sherali qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat tilining vujudga kelish tarixi, tilning mamlakatimizdagi rivojlanish jarayoni, shu bilan birga, o'zbek tilimizning rivojlanishi uchun qilinayotgan say-harakatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, aholining tildan to'g'ri va noto'g'ri usullardan foydalanishining salbiy yoki ijobiy tomonlari va hozirgi globallashgan jamiyatning tilga bo'lgan o'zaro ta'siri haqida ijodiy tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *Prezident farmoni, Vazirlar Mahkamasi, milliy g'urur, vatanparvarlik, yot so'zlar, so'zning mavqeyi, davlat tili, millat ruhi, konstitutsiya.*

Annotation: *This article provides information about the history of the formation of the state language, the process of language development in our country, and the efforts being made to promote the development of the Uzbek language. In addition, it presents a creative analysis of the positive and negative aspects of how people use the language correctly or incorrectly, as well as the mutual influence of today's globalized society on language.*

Keywords: *Presidential decree, Cabinet of Ministers, national pride, patriotism, borrowed words, word status, state language, spirit of the nation, constitution.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация об истории формирования государственного языка, процессе развития языка в нашей стране, а также о предпринимаемых усилиях по развитию узбекского языка. Кроме того, проведён творческий анализ положительных и отрицательных сторон правильного и неправильного использования языка населением, а также взаимного влияния современного глобализированного общества на язык.*

Ключевые слова: *Указ Президента, Кабинет Министров, национальная гордость, патриотизм, заимствованные слова, статус слова, государственный язык, дух нации, конституция.*

KIRISH

Bugungi kunda davlat tilining mamlakatimizdagi o'rni va ahamiyatiga to'xtalar ekanmiz, avvalambor, "davlat tili" tushunchasiga izoh keltirib o'tsak.



Davlat tili – ma'lum bir mamalakat aholisiga tegishli, ya'ni mamlakatdagi hamma aholi uchun birdek bo'lgan, aynan o'sha aholi o'zaro bir-biri bilan muloqoti jarayonida foydalanadigan til. Boshqacha qilib aytganda, insonlar o'zaro bir-birlarining ehtiyojlarini qondirishi va ijtimoiylashuvi uchun muloqot vositasi hisoblanadi.

Davlat tilining vujudga kelishi aynan insonlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va ijtimoiylashuvidan hosil bo'lgan. Chunki tilning hayoti, millatning hayoti bilan chanbarchas bog'liq, millat yo'q bo'lib ketsa, o'sha millat foydalanadigan til ham o'z-o'zida yoqolib ketadi ya'ni o'sha tildan muloqot vositasi sifatida foydalanadigan insonlar yo'qligi sabab bo'ladi. Mana shundan ko'rinib turibdiki, har bir mustaqil davlatning o'z davlat tili mavjuddir. Aynan bu davlat tiliga ega bo'lish ham osonlikcha hal bo'ladigan ish emas. Uning ham o'ziga yarasha qiyinchiliklari va ma'suliyatli tomonlari ham mavjud.

O'zbek xalqi tilining takomillashuvida XIV asrdan XIX asr ikkinchi yarimigacha bo'lgan tarixiy davrda ota-bobolarimiz Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Turdi Farog'iy, Boborahim Mashrab, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning eski o'zbek tilini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishlardagi xizmatlari katta. Ayniqsa, bu borada Alisher Navoiy bobomiz o'zbek tilini XV asrda davlat tili darajasiga ko'tarish, uni ravnaq toptirish uchun ko'p mehnat qilgan. U o'zining "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Muhokamat ul-lug'atayin" kabi asarlarida turkiy tilning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Alisher Navoiy davrida turk tilidan ko'ra fors tili mashhur bo'lgan ya'ni o'sha davrdagi yozuvchilar, shoirlar hatto davlat ishlari ham shu tilda olib borilayotgan bir paytda, bobomiz Alisher Navoiy o'z asarlari orqali turk tilini qanchalik boy va go'zal til ekanligi, shu bilan birga o'zining serqirra ijodkorligini isbotlagan.

Bundan tashqari o'zbek adabiy tilining shakllanishiga va yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tarilishiga ulkan xissa qo'shgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining shoh asari "Xamsa" ni turkiy tilda yaratib, tilning cheksiz imkoniyati va yuksak qudratini yaxlitligicha namoyon qildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, dunyoning taniqli yozuvchilari Aleksandr Pushkin o'z asarlarida 21193 ta, Vilyam Shekspir 20000 dan ortiq so'z qo'llagan bo'lsa, Alisher Navoiy 26035 ta so'zdan foydalanib yana bir bor tilimizning boy imkoniyatlarini ko'rsatib yosh avlodga har jihatdan o'rnak bo'ladigan qahramonlar obrazini yaratdi. O'zbek tilining bugungi ko'rinishga kelgunga qadar juda katta tarixiy taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan¹.

O'zbekiston Respublikasining davlat tili qabul qilinishi uchun ham ancha mashaqqatli yo'l bosib o'tilgan, ya'ni turli xil davlatlarning yurtimizga

¹ Sulaymonova T.Z, Jizzax davlat pedagogika instituti. Kichik yoshdagi o'quvchilarda ma'naviy-ahloqiy tarbiyani shakllantirishda ona tili imkoniyatlaridan foydalanish. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal – (2) I/2020



yurishlari va bosib olishlari. Bunga misol, O'zbekiston aholisi Sovet Ittifoqi paytida davlat tili degan tushuncha bo'lmagan hatto u haqida umuman gapirish mumkin bo'lmagan, aksincha o'zbek tilida so'zlashish tobora qiyinlashib, turli xil cheklovlar qo'yilgan. Va mana shunday vaziyatda ma'rifatparvar jadid bobolarimizning hissasi ham juda kattadir. Bunda jonkuyar, vatanparvar, serqirra, haqgo'y insonlar jamiyatni qayta tiklash, ma'naviy poklanishni boshlab berdi. 1989-yil 21-oktabr kuni O'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi - xalqimizning mustaqillik uchun qoyilgan muhim qadamlaridan biri bo'lib, bu o'zbek xalqi milliy ongining yuksalishida, davlatning rivojlanishida, mamlakatimizning madaniy-siyosiy merosining tiklanishida muhim rol o'ynaydi. Negaki, donishmandlarimizdan biri Kaykovus deydi: "Kishining martbasini so'zi bila bilurlar, ammo so'zning martabasini kishi bila bilmaslar, chunki har kishining ahvoli o'z so'zining ostida pinhondur"². Shundan bilishimiz mumkinki, til - bu millat g'ururi hisoblanadi. Birgina til orqali butunboshli millat, insonning qanchalar yuksak qalb sohibi ekanligini bilish mumkin, har bir davlatning tili bu ma'lum bir xalqning ma'naviy-madaniy xulqini va hislatlarini aks ettiruvchi misoli bir ko'zgu hisoblanadi.

Shu boisdan ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bugungi kunda davlat tili ya'ni o'zbek tilini zamon talabi asosida rivojlantirish, jamiyatimiz hayotida davlat tilining o'rnini mustahkamlash uchun qo'lidan kelgancha amaliy ishlar olib bormoqda, ya'ni davlat tilini rivojlanishiga oid ko'plab farmon va qonunlarning joriy etilishini ko'rishimiz mumkin.

"Hozirgi o'ta keskin va tahlikali zamonda faqatgina shu asosda o'z milliy manfaatlarimizni qat'iy himoya qilishga, jumladan, ona tilimizni asrab-avaylash va boyitish, uni ilm-fan, iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, axborot-kommunikatsiya, diplomatiya va boshqa muhim yo'nalishlarda ta'sirchan muloqot vositasiga aylantirib, taraqqiyot sur'atlariga uyg'un holda rivojlantirishga, xalqaro nufuzini munosib darajaga ko'tarishga erisha olamiz"³, - deya tabrigini davom ettirdi davlat rahbari.

Shavkat Mirziyoyev shoir Erkin Vohidovning: "Ona tili - umummillat mulki. Demak, til oldidagi mas'uliyat ham umummilliy bo'lib, bu yolg'iz tilshunoslarning emas, butun millatning ishi"⁴, degan so'zlarini iqtibos qilib keltirib, buni doim yodda saqlash lozimligini qayd etdi.

Davlat tilining mamlakatimizdagi o'rnini va ahamiyatini ona tilimiz uchun qilinayotgan say-harakatlarimizda ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ona tilimizning erkinligini va O'zbekistonning

² Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: O'qituvchi, 1986. 45-bet.

³ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/21/uzbek-language/>

⁴ Gazeta.uz "Davlat tili taraqqiyotini boshqa millat vakillaring tili..."



har qaysi hududida ona tilimizdan foydalana olishimiz mumkinligi belgilab qo'yilgan.

1-modda. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

2-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiradi.

Nafaqat bugungi kunda, tilni e'zozlash yoshlarimizning burchi va vazifasi, balki, til mavqeyi - el mavqeyi bo'lganligi har birimiz ona tilimizni yaxshi o'zlashtirishimiz va tilimizning yuksalishi uchun o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Ma'rifatparvar, o'nga yaqin tilni puxta o'rgangan olim Is'hoqxon Ibrat ham "Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun say-harakat qilsinlar, lekin, avvalo, o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat - bu Vataniy ishdir"⁵ deya yozib ketgani bejiz emas. Negaki, bugungi kunda o'z tilini qo'yib o'zga tillarni o'rganadiganlar, ammo o'z tilini bilmaydigan insonlar ham kam emas. Chunki o'z tilini bilmagan inson, avvalambor, o'zini hurmat qilmaydi va boshqalarni ham. Shu boisdan, o'z ona tilini e'zozlagan farzand o'zligini yo'qotmaydi, xalqini aziz bilib, hurmat qilib, mamlakat taraqqiyotida o'zini daxldor his qiladi.

O'zbekning yana bir buyuk ma'rifatparvari A.Avloniy: "Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurg'on oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur" deganlarida nechog'li haq edi. U o'sha paytda ham tilimiz haqida qayg'urib, "milliy tilimizni saqlamoq bir tarafda tursin, uni unitib, yo'qotmoqdamiz"⁶ deya jon kuydirgan edi. Mana shunday ulug' bobolarimiz til haqida qayg'urganda nega biz yosh-avlodlar jim qarab turishimiz kerak. Aksincha, biz, bo'lajak yosh-avlodlar yurtimiz uchun elimiz uchun g'urur va iymonnimiz uchun jonjahtimiz bilan harakat qilib, davlatimizni yuksak darajaga ko'tarishimiz lozim.

Hammaga ma'lumki, "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu niyat, fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - millatning ruhidir."⁷ Shu boisdan, ma'naviyatning ko'zgusi bo'lgan ona tiliga munosabat shaxsning ma'naviyatga

⁵ "MAKTABGACHA TALIM TIZIMI XODIMLARINI RIVOJLANTIRISH: AMALIYOT VA XORIJIY TAJRIBA" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI 2024YIL 23-24 MAY 187-bet.

⁶ "MAKTABGACHA TALIM TIZIMI XODIMLARINI RIVOJLANTIRISH: AMALIYOT VA XORIJIY TAJRIBA" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI 2024 YIL 23-24 MAY 186-bet.

⁷ Jarqorgon.uz "Davlat tilining xalqimiz hayotidagi o'rni"



bo'lgan munosabatini belgilaydi va shuning uchun ham hozirgi kunda yoshlarimizga ona tiliga bo'lgan hurmat, e'tibor, unga davlatning, millatning muhim bir vositasi kabi qarashning ma'suliyatini yoshlar ongiga singdirish va uni amalda qo'llab, mustahkamlab borish dolzarb muammolardan biri ekanligi achchiq haqiqatdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, bugungi kunda til davlatning g'ururi va erkinligining bir siymosi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki o'z tilini bilish va so'zlardan muloqotda to'g'ri foydalanish ya'ni so'zlarni ravon aytish bir darajada insonning qandayligini yaqqol ko'rsatib beradi. Shu bois ham hozirgi kunda tilning rivoji uchun prezidentimiz tomonidan ham ko'plab say-harakatlar olib borilmoqda. Bunga misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yili 21-oktabrda qabul qilingan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida belgilangan vazifalar doirasidagi amaliy ishlar olib borilayotganini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi va Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizom ham qabul qilindi.

Ma'lumki, har yili yurtimizda O'zbek tili bayrami keng miqyosda nishonlab kelinmoqda va shuni e'tiborga olgan holda tafakkur qilishimiz mumkinki tilimizning yurtimizdagi o'rni va ahamiyati juda katta.

Prezidentimizning tilga bo'lgan yana bir o'zida yuksak ma'noni qamrab olgan gaplarini ham aytib o'tishni o'zimga lozim ko'rdimki, "O'zbek tili davlat tili sifatida xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizni ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuch bo'lib maydonga chiqdi. Ayni vaqtda u O'zbekistonning davlat mustaqilligi sari qo'yilgan birinchi dadil qadam edi" deb tilga bergan ta'rifi insonni o'z tiliga muhabbatini yanada oshiradi. Yuqoridagi fikrlar va sa'y-harakatlar bekorga aytilib yoki amalga oshayotgani yo'q. Bularning ortida ham bir yaxshi niyat va manfaatli ishlar ko'zlangan ya'ni yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy g'urur, oriyat, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash kabi maqsadlar qo'yilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonning davlat tilini xaqllarning ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosidagi obro'-e'tiborini yuksak darajada oshirishni ham o'z oldimizga maqsad qilib olgan holda, biz yoshlar ham tilning rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

Bugungi globallashgan zamonda, ba'zi bir yoshlar o'zbek tilimizni rivojlantirishdan ko'ra, uning rivojiga salbiy ta'siri ko'rsatayotgani hech kimga sir emas. So'z tanlash va jumla tuzishda leksik va grammatik jihatdan ko'plab xatolarga yo'l qo'yishmoqda. Bunga misol qilib aytishim mumkimki, hozirgi globallashgan jamiyat a'zolari innovatsion texnologiyalardan foydalanar ekan,



yuksak darajada rivojlangan mamlakatlar bilan raqobatlashib va o'z bilimlarini mukammal darajada yuksaltirish maqsadida o'z tillarini to'liq grammatik va adabiy til me'yorlarini bilmasdan, yangi tillar o'rganishmoqda. Va mana shunday tillarni o'rganish maqsadida o'z tillariga, ya'ni ona tiliga putur yetkazayotganini anglashmayapti. Bir tomondan, o'z bilimini oshirish yoki davlatga foydasi tegishi maqsadida yangi til o'rganayotgan bo'lishi mumkin. Biroq yoshlarimiz yangi so'zlarni yodlash maqsadida bizning ona tilimizga chet tildagi so'zlarni chatishtirib va turli xil jargonlar, yot so'zlardan foydalanib, tilimizdagi so'zlarning ham mavqeyini butunlay yerga churib tashlayapti. Va yurtimizda qo'llanilayotgan ana shunday yot so'zlarga misol: astanofka-bekat, apteka-dorixona, most- ko'prik, bufet-oshxona, ochki-ko'zoynak, tualet-hojatxona

Bunda esa hozirgi kunda yoshlarimizning tilga bo'lgan salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rishimiz mumkin. Buning oldini olishimiz uchun yurtimizda o'z ona tilimizdan foydalanishni talab qiladi xolos. Ya'ni o'z tilimizdan to'g'ri foydalanishimiz kerak. Shu sababli ham har bir kishi tilini mukammal o'rganishi va uning taraqqiyoti uchun hissa qo'shishi lozim. Buning uchun biz quyidagi ishlarni amalda qo'llashimiz va harakat qilishimiz kerak.

O'zbek tilining lug'at boyligini kengaytirishimiz, shu bilan birga asrab-avaylashimiz lozim. Buning uchun biz yoshlar sof o'zbek tilida so'zlashishimiz, istorizm va arxaizm so'zlarning tarixini va chetdan kirib kelayotgan neologizm so'zlarni o'rganishimiz lozim.

Tilimizning kelib chiqish tarixini o'rganishimiz va uni zamon talabi darajasida rivojlantirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu boisdan buni yurtimizning oliy ta'lim muassalarida amalda qo'llab kelmoqdamiz, ya'ni biz maktabda ona tilimiz haqida boshlang'ich ma'lumotlar olamiz va uni mustahkamlash uchun yanada chuqurroq o'rganish maqsadida bugungi kunda oliy ta'lim yurtlarida davlat tiliga oid mustaqil fanlar joriy qilinib o'qitilmoqda. Misol uchun, "Tilshunoslik asoslari", "Davlat tilida ish yuritish", "Ifodali o'qish va nutq madaniyati" kabi fanlar talabalarimizning til haqidagi ma'lumotlarini mustahkamlash, tilning tarixi va uni bugungi kundagi taraqqiyot yo'llarini o'rgatadi. Shu bilan birga, insonlar orasidagi nutq madaniyatini va har bir insonda notiqlik san'atini shakllantiradi. Hozirda yosh avlodning kamol topishida muhim rol o'ynovchi shaxs avvalo, o'qituvchi ya'ni muallimning ravon va ifodali nutqi, go'zal axloqi, beqiyos ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi. Shuni o'ylagan holda, oliy ta'limda bilimlar yanada chuqurroq o'rgatiladi. Shunga ko'ra biz yoshlar yaxshi o'qib, o'rganib o'z ustimizda ishlasak, shu yo'l bilan kelajakda yaxshi kadr bo'lib, mutaxassis sifatida til taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz. Yana bir narsani aytishim mumkinki, ona tilimizning so'z boyligi bizning tasavvurimizga sig'maydigan darajada boy va bu



boyliklarimiz tarixga oid manbalarimizda saqlanib kelmoqda. Ana shunday so'zlarni o'rganish va hayotga tatbiq etish ya'ni ijtimoiy hayotda qo'llashimiz orqali tilimizni rivojlantirishga hissa qo'shgan bo'lamiz.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, biz yurtimizning kelajak avlodlari tilimizni asrab, uni rivijlanishida, obro'-e'tiborini yuksak cho'qqiga ko'tarishda o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Yana bir serqirra ijodkor yozuvchilarimizdan biri O'tkir Hoshimov ona tili haqida shunday deb yozadiki, "Qancha ko'p tilni bilsangiz, shuncha yaxshi. Biroq odam ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko'radi, ona tilida yig'laydi... O'limi oldidan onasini ona tilida yo'qlaydi..."⁸ bundan ko'rinib turibdiki, til - bu inson bilan chambarchas bog'liq to o'limiga qadar. Go'yoki tirnoq bilan etni ajratib bo'lmagandek. Chunki til - bu millat qalbi, millat ruhi, xalqning tarixidir. Tilni qanchalar ravnaqi va ma'naviy tomondan mukammal rivojlantirsak, davlatimizning ham poydevori ham shunchalik mustahkam bo'ladi. "Davlat tilining obro'-e'tibori – butun xalq, butun jamiyatning obro'-e'tiboridir".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.G'ulom Mirzo "Kuch – adalotda".
- 2.Insonhuquqlari.uz
- 3.O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev.
- 4.Gazeta.uz
- 5.O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 21.12.1995-yildagi 167-1-son.
- 6.Lex.uz on-line.
- 7.Jarqorgon.uz. Muhridin Hakimov,Davlat tili bo'yicha Jarqo'rg'on tuman hokimi maslahatchisi.
- 8.Abdumajidov.F. Davlat tili haqida(qonunga sharhlar), T.,1998.
9. Sulaymonova T.Z, Jizzax davlat pedagogika instituti. Kichik yoshdagi o'quvchilarda ma'naviy-ahloqiy tarbiyani shakllantirishda ona tili imkoniyatlaridan foydalanish. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal – (2) I/2020
10. Gazeta.uz "Davlat tili taraqqiyotini boshqa millat vakillarining tili va ..."
- 11.Kaykovuz. Qobusnoma. - Toshkent: O'qituvchi,1986.45-bet.
- 12.Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rivojlantirish:Amaliyot va xorijiy tajriba". Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.
- 13.LEX.UZ PF-5850-son 21.10.2019. " O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi..."

⁸ O'tkir Hoshimov Daftari hoshiyasidagi bitiklar - "Nurli dunyo" nashriyot uyi, 2024. 30-bet.